

MARKAZIY OSIYO XALQLARINING ETNOPSIXOLOGIYASI

Zulayho Saminjonova

Farg ‘ona davlat universiteti amaliy psixologiya yo ‘nalishi talabasi

Annotation

Ma‘lumki etnopsixologik xususiyatlarning o‘ziga xos tomonlarini mujassamlashtiruvchi va uni namoyon etuvchi shu etnik birlik vakillaridir. Etnik birlik vakillarida etnologik xususiyatlarning shakllanishi ko‘p jihatdan ular yashayotgan hayot tarzi bilan bog‘liq. Markaziy Osiyo hududida ham juda ko‘p etnik birlik vakillari istiqomat qiladi. Aynan shu etnik vakillarning milliy psixologik qiyofasi to‘g‘risida ushbu maqolada fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: etnik psixologiya, milliy psixologik qiyofa, ijtimoiylashuv jarayoni, sotsium

Har bir inson ma‘lum darajada mustaqil yashash va faollik ko‘rsatishga ega bo‘lsa ham lekin hayotda u faqat o‘z xohishi va tushunchasi bilan yashab qolmay, shuning bilan birqalikda o‘zi yashab turgan sotsial muhit va o‘zi mansub bo‘lgan xalqning tajriba, bilim va e‘tiqodlarini ham o‘zlashtirib boradi. Chunki inson o‘zi yashayotgan sotsial muhitdan ajralib yashay olmaydi. Har bir avlod vakillari ajdodlarning turmush tajribalarini, til va madaniy xususiyatlarini o‘zlashtirib, millat uchun umumiyoq bo‘lgan shart-sharoitlar ostida o‘sib, tarbiyalanib borishi natijasida ularning barchasida shu millatga xos bo‘lgan umumiyoq psixologik xislatlar shakllanadi. Shundan kelib chiqqan holda etnik psixologiyada xalqning yashash sharoitlaridan kelib chiqadigan ijtimoiy va maishiy odatlar, milliy xarakter, an‘analar, milliy tuyg‘ular, milliy ong va milliy o‘zlikni anglash kabilalar aks etadi.

Milliy psixologik qiyofa etnik psixologiyaning asosiy komponentlaridan hisoblanib, milliy ong bilan birqalikda etnopsixologiyani tashkil qiladi. Milliy psixologik qiyofaning ichki tizimi va tuzilmasi masalasi A.I. Goryacheva, S.M. Arutyunyan, A.Bagramov, S.M. Junusov, P.D. Parigin, F.N. Filatov va boshqa tadqiqotchilar asarlarida, ilmiy ishlarida atroficha yoritilgan.

Markaziy Osiyo mintaqasiga Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Tojikiston va O‘zbekiston kiradi. Mintaqada yashovchi aholining milliy psixologik qiyofasini yaratishda qisman o‘xshashliklarni ko‘rish mumkin. Masalan: Markaziy Osiyo xalqlarini dini, madaniyati, tili, san‘ti, urf-odatlarida yaqinlik mavjud. Birgina “Ko‘pkari” o‘yinini qozoq, qirg‘iz, o‘zbek, turkman, tojiklar sevib o‘ynaydi.

Kiyimlarning ko‘rinishida ham har bir xalqning o‘ziga xos urf-odatlari aks etadi.

Qozoqlarda xalq liboslari ko‘plab avlodlarning san‘ati va iste‘dodi bilan yaratilgan, yuzlab va minglab hunarmandlarning mehnati bilan ko‘paygan eng yaxshi

narsalarni singdiradi.Qozoq libosi ko‘chmanchi,yarim o‘troq va o‘troq aholi qatlamlarining faoliyatiga moslashtirilgan.Unda xalqning jo‘shqin turmush tarzi,ishlab chiqarish darjasи,estetik ideallari o‘z ifodasini topgan.

Qирғиз милий либослари одамларнинг yashash шароитлари,estetikasi va ehtiyojlariga moslashtirilgan.Ayniqsa qирғизларда милий bosh kiyim-elechekning ahamiyati beqiyosdir.

Turkman милий киymilar keng ko‘rinishda bo‘lib,bunday kiyimlar ko‘chmanchi tarzdagi hayot uchun juda monand,yilning issiq va sovuq mavsumlarida tana haroratini me‘yorida ushlab turish imkonini beradi.

Tojiklarda mamlakat iqlimi turlicha ekanligi kiyimlarga ta‘sir ko‘rsatgan.Har bir hududda ob-havoga mos kiyimdan foydalaniladi.

O‘zbeklarning ham милий киymilar ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lib,an‘naviy turmush tarzi,tabiiy-geografik muhit va xo‘jalik an‘analar bilan bog‘liq.

O‘zbeklarning asosiy ildizi turkiylardan boshlanganligi sababli ularda turkiylikka xos jangovarlik, mardlik, bag‘rikenglik, sahovatpeshalik, hojatbarorlik hislatlari o‘zining yorqin ifodasini topgan.Biz buni ayniqsa xalqimizning to‘y-tantanalariga o‘chligida, yillar mobaynida yig‘ib-terib elga tarqatishida zavq-shavq olishida, motam va a‘za marosimlarini uyushgan holda o‘tkazishida ko‘rish mumkin.

O‘zbek milliy mentalitetiga xos jihatlardan yana biri jamiyat hayoti,insonlar turmush tarzini ko‘proq an‘ana,urf-odatlar orqali boshqarilishidir.Misol uchun to‘y marosimlarining ko‘p qismi mavjud urf-odat orqali o‘tkaziladi.

Birgina O‘zbekiston hududining turli viloyatlarida ham o‘ziga xos psixologik qiyofa mavjudligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.Misol tariqasida oladigan bo‘lsak, O‘zbekiston hududida 12 ta viloyat mavjud bo‘lsa,har bir viloyatdagi aholining mehnatsevarligi turlicha ko‘rinishda namoyon bo‘ladi.Masalan:Buxoroliklar ham,Qashqadaryo va Surxondaryoliklar ham,vodiy aholisi ham,hammasi mehnatkash xalq.Lekin ularning shu mehnatsevarligi faoliyatning turli sohalarida turlicha namoyon bo‘ladi.Buxoroda asosan dehqonchilik,chorvachilik bilan shug‘ullanish,Surxondaryoda asosan chorvachilik,vodiy hududida esa dehqonchilik bilan shug‘ullanish asosiy faoliyat sifatida namoyon bo‘ladi.Bu faoliyat asosan ular yashayotgan hudud sharoitlari bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

O‘zbek xalqi xarakterida bir qarich yeriga yopishib olishlik, "kindik qoni to‘kilgan" yerni bark etmaslik xususiyatlari bor. Bu xarakter xususiyatlarining vujudga kelishi o‘zbek xalqi tarixiy taraqqiyotidagi o‘ziga xos xususiyatlar bilan bog‘liq. Masalan, Markaziy Osiyo, xususan, xozirgi O‘zbekiston xududida mavjud bo‘lgan bir necha feodal davlatlar, xonliklarning siyosiy-iqtisodiy jihatdan parchalanganligi, ular o‘rtasidagi tez-tez bo‘lib turadigan qonli to‘qnashuvlar, xo‘jalik yurgizishdagi patriarchal usullarning mavjudligi, urug‘-aymoqchilik urf-odatlarining saqlanib qolishi

va nihoyat dehqonchilik qilish uchun sug‘oriladigan, yaroqli yerlarning cheklanganligi kabi omillar, o‘zbek xalqi xarakteridagi shu xislatlarni vujudga keltirib chiqaradi.

Tarix - avlodlarning birining o‘rniga ikkinchisining kelishidan iboratdir. Ularning har biri avvalgi avlodlar qoldirgan barcha materiallaridan, boyliklaridan, ishlab chiqaruvchi kuchlardan foydalanadi. Natijada avlodlararo vorislik paydo bo‘ladi. Milliy udumlar umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘lanib ketgan. Milliy xarakter umumbashariy xususiyatlarga zid bo‘lmaydi. Shuning uchun ham uni boshqa millat va elatlar xarakteridan ajratib qo‘yish yoki qarama-qarshi qo‘yish mumkin emas. Har bir xalq boshqa xalq bilan yaqin ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlarga kirishganda undan o‘zida yo‘q narsalarni oladi va o‘zidan ham ularda bo‘lmagan narsalarni beradi.

Lekin boshqa xalqlardan olingan bu xarakter xislatlari, millat vakillari tomonidan o‘zlashtirilganda, aynan o‘zgarishsiz ko‘chirma olmay, o‘ziga xos milliy ifodani oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T.U.Salimov „Jahon xalqlari etnologiyasi“. Toshkent-2020
2. B.M.Umarov „Psixologiya“. Toshkent „Voris-nashriyot“-2012
3. V.M.Karimova „Psixologiya“. A.Qodiriy nomidagi „Xalq merosi“ nashriyoti-2002